



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 4-son

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.4.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.





MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Niyozova Salomat Saparovna

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI VA ULARGA
IMKON BERGAN SHART-SHAROITLARGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR 4

Islomov Bunyod Ochilovich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNIDA YENGILROQ JAZO
TAYINLASH15

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Qodiraliyev Saddam Baxtiyorjon o‘g‘li, Gulmurodov Firuzbek Olimjon o‘g‘li

TERGOV SUDYASI – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA
YANGI INSTITUT SIFATIDA28

Yermekbayev Baurjan Amantayevich, Akmalov Hamid Akmalovich

TINTUV YOKI OLIB QO‘YISH O‘TKAZISHDA SHAXS HUQUQLARI VA QONUNIY
MANFAATLARINI KAFOLATLASH40

Olimov Bekmirza Tuxtapulatovich

INSON O‘LIMI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHDA
EKSPERT XULOSASINING AHAMIYATI51

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.4./COMF2954>
UDC: 342.24(045)(575.1)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNIDA YENGILROQ JAZO TAYINLASH

Islomov Bunyod Ochilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
“KDB Bank O‘zbekiston” AJ bosh yuriskonsulti
ORCID: 0000-0001-8827-4900
e-mail: bunyodislomov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat huquqida jazoni yengillashtirish instituti va jazoni yengillashtirish usullari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 57-moddasida nazarda tutilgan yengilroq jazo tayinlash, ya’ni sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda jazoni yengillashtirish tartibi, shuningdek, qayd etilgan tartibning ushbu Kodeks 55-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘zda turilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar vositasida jazoni yengillashtirish hamda mazkur Kodeksning 57¹-moddasiga muvofiq aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida jazo tayinlash tartibi bilan o‘zaro nisbati qator xorijiy mamlakatlar, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga a‘zo mamlakatlar jinoyat qonunlari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Jinoiy qilmishda jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni inobatga olish, so‘nggi qayd etilgan holatlarning ro‘yxatini shakllantirish hamda yengilroq jazo tayinlash tartibi qo‘llanilmaydigan holatlar ro‘yxatini kiritish masalalari ham e‘tibordan chetda qolmagan. Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra mazkur maqolaning xulosa qismida yuqorida tilga olingan bir qancha mamlakatlarning ayrim jinoyat-huquqiy me‘yorlarini O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq qilishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yengillashtiruvchi holatlar, og‘irlashtiruvchi holatlar, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar, istisnoli holatlar, voyaga yetmagan shaxs, cheklangan aqli rasolik, afv etish, amnistiya, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv, shartli hukm, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, korrupsiya, tamom bo‘lmagan jinoyat.

НАЗНАЧЕНИЕ БОЛЕЕ МЯГКОГО НАКАЗАНИЯ ПО УГОЛОВНОМУ ЗАКОНУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Исломов Бунёд Очилович,
самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан,
главный юрисконсульт АО «КДБ Банк Узбекистан»

Аннотация. В данной статье проведён анализ института смягчения наказания и способов смягчения наказания в уголовном праве, назначения более мягкого наказания, то есть порядок смягчения наказания с учётом обстоятельств, существенно снижающих степень общественной опасности совершённого преступления согласно статье 57 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, а также соотношения указанного порядка со смягчением наказания с учётом обстоятельств, смягчающих наказание, указанных в частях первой и второй статьи 55 уголовного кодекса и порядком назначения наказания при деятельном раскаянии виновного в содеянном в сравнении с уголовными законами некоторых зарубежных стран, включая уголовное законодательство стран-членов организации Содружества Независимых Государств. Не остались без внимания и вопросы учёта обстоятельств, существенно снижающих степень общественной опасности совершённого преступления при наличии отягчающих наказание обстоятельств в преступном деянии, формирования перечня последних обстоятельств наряду с перечнем случаев неприменения порядка назначения более мягкого наказания. По итогам сравнительного анализа в заключительной части настоящей статьи разработаны предложения по имплементации некоторых уголовно-правовых норм вышеупомянутых государств в Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: смягчающие обстоятельства, отягчающие обстоятельства, обстоятельства существенно снижающие степень общественной опасности совершённого преступления, исключительные обстоятельства, несовершеннолетнее лицо, ограниченная вменяемость, помилование, амнистия, соглашение о признании вины, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, коррупция, неоконченное преступление.

THE IMPOSITION OF A MORE LENIENT PUNISHMENT UNDER THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Islomov Bunyod Ochilovich,
Independent Researcher of the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Senior Legal Adviser of “KDB Bank Uzbekistan” JSC

Abstract. This paper analyzes the institution of mitigation of punishment and methods of mitigation of punishment in criminal law, the imposition of a more lenient punishment, that is, the procedure for mitigating punishment, taking into account the factors that significantly reduce the degree of public danger of the offence committed in accordance with Article 57 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, as well as the ratio of this order with mitigation of punishment, taking into account the mitigating factors, specified in the first and second clauses of Article 55 of current Code and the order of sentencing in case of active repentance of the perpetrator in

comparison with the criminal laws of some foreign countries, including the criminal legislation of the member-countries of the Organization of the Commonwealth of Independent States The issues of taking into account the factors that significantly reduce the degree of public danger of the committed offence in the presence of aggravating factors in the criminal act, the formation of a list of recent factors along with a list of cases of non-application of the procedure for imposing a more lenient punishment have not been ignored. Based on the results of the comparative analysis in the conclusion part of this paper, proposals on the implementation of some of criminal law norms of the foregoing states to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan have been developed.

Keywords: *mitigating factors, aggravating factors, factors that significantly reduce the degree of public danger of the committed offence, exceptional factors, minor, diminished responsibility, pardon, amnesty, plea agreement, probation, parole, corruption, inchoated offence.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda – O'zR JK) Umumiy qismida o'z ifodasini topgan institutlardan biri jazo tayinlash instituti sanalib, u quyidagi vositalar yoxud usullar majmuini qamrab oladi:

1) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida jinoyat sodir etgan taqdirda jazoning yengillashtirilishi (12-modda birinchi qismi);

2) jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi asosida jazoning yengillashtirilishi yoki shaxs ahvolining boshqacha tarzda yaxshilanishi (qilmishning jinoyligi bekor qilinishi va h.k.) (13-modda ikkinchi qism);

3) aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan (cheklangan aqli rasolik holatida bo'lgan) shaxsga nisbatan jazoning yengillashtirilishi (18-1-modda ikkinchi qismi);

4) ma'lum bir toifadagi shaxslarga nisbatan alohida jazo turlarini tayinlashga doir taqiq asosida jazoning yengillashtirilishi (45-modda beshinchi qismi, 45-1-modda to'rtinchi qismi, 46-modda uchinchi qismi, 48-1-modda yettinchi qismi, 50-modda to'rtinchi va o'ninchi qismlari, 51-modda uchinchi qismi). Voyaga yetmaganlar quyida alohida guruhga ajratilganligi bois mazkur guruhga kiritilmagan;

5) ozodlikdan mahrum qilish jazosining intizomiy qismga jo'natish jazosi bilan almashtirilishi (49-modda ikkinchi qismi).

6) jazoni o'tash sharoitlarining, ya'ni jazoni o'tash muassasasi turining o'zgartirilishi oqibatida jazoning yengillashtirilishi (50-modda sakkizinchi qismi, 85-modda beshinchi qismi);

7) ma'lum bir toifadagi shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazoning eng yuqori muddatini cheklab qo'yish orqali jazoni yengillashtirish (50-modda oltinchi qismi);

8) JK 55-moddasi birinchi qismida o'z aksini topgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda jazoni majburiy tartibda yengillashtirish;

9) JK 55-moddasi birinchi qismidagi ro'yxatga kiritilmagan va ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'zda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazoni ixtiyoriy tarzda yengillashtirish;

10) jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda yengilroq jazo tayinlanishi (57-modda);

11) aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida jazoning yengillashtirilishi (57-1-modda);

12) aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazoning yengillashtirilishi (57-2-modda);

13) tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish (58-modda birinchi-uchinchi qismlari);

14) jinoiy javobgarlik yoxud jinoiy jazodan ozod qilish qoidalarini qo'llagan holda jazoning yengillashtirilishi:

a) javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish qoidalarini qo'llash paytida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish orqali jazoni yengillashtirish (64-modda oltinchi qismi);

b) jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish qoidalarini qo'llash paytida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish orqali jazoni yengillashtirish (69-modda beshinchi qismi);

d) jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish (74-modda);

e) amnistiya akti asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ozod qilish yoki jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish (76-modda). Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilishni jazoni yengillashtirish deb bo'lmaydi, sababi jazo tayinlash bosqichiga yetib bormasdan turib jinoyat protsessi tugallanadi (68-modda). Shuningdek, sudlanganlikning amnistiya akti asosida olib tashlanishi ham jazoning yengillashtirilishini emas, balki shaxs holatining boshqacha tarzda yaxshilanishini ifodalaydi (79-modda beshinchi qismi);

f) afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ozod qilish yoki jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish (76-modda). Shu o'rinda sudlanganlikning afv etish asosida olib tashlanishi ham jazoning yengillashtirilishini emas, balki shaxs holatining boshqacha tarzda yaxshilanishini ifodalaydi (79-modda beshinchi qismi);

15) voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni yengillashtirish (55-modda birinchi qismi "j" bandi, 81-86-moddalar);

16) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish (90-modda). Voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni esa ularning holati boshqacha tarzda yaxshilanishini anglatadi (89-modda).

Biz mazkur tadqiqotda jazoni yengillashtirishning usullaridan biri bo'lmish yengilroq jazo tayinlash tartibini tahlil qilishni lozim topdik. Sababi biz tomonimizdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yo'llangan (2023-yil 13-iyuldagi

02/2023-2951-sonli) so'rov xatiga javoban (2023-yil 8-avgustdagi 07/14-10607-287-sonli xat bilan) taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 57-moddasining sudlar tomonidan hukm chiqarishda qo'llash dinamikasining o'sib borayotganligiga doir quyidagi statistik ma'lumotlar yildan yilga yengilroq jazo tayinlashning ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi:

Hisobot davri	O'zR JK 57-moddasi qo'llangan	
	Ish	Shaxs
2019	7 314	9 635
2020	7 467	9 822
2021	10 669	14 056
2022	13 096	16 959
2023-yil 6 oy	7 119	9 212

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida asosan qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

O'zR JK 57-moddasiga ko'ra, yengilroq jazo tayinlash uchun asos vazifasini bajaradigan "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkiloti a'zolari qatoridan Ozarbayjon (62-modda), Armaniston (64-modda), Belarus (70-modda), Qozog'iston (55-modda), Moldova (79-modda), Rossiya Federatsiyasi (64-modda), Tojikiston (63-modda), Turkmaniston (58-modda) va Ukraina (69-modda) jinoyat kodekslaridan ham "alohida" yoxud "istisnoli holatlar" sifatida o'rin olgan bo'lib, qayd etilgan holatlar nomlanishi turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil huquqiy tabiatga ega sanaladi. Ayni paytda ayrim mualliflar tomonidan mazkur toifadagi holatlarning ta'rifi noaniqligi, miqdorining cheksizligi, yengilroq jazo tayinlashning umumiy amaliyoti shakllanmaganligi kabi sabablar tufayli jinoyat qonunidan chiqarib tashlagan holda [1, 114-b.], jazoning eng kam miqdoridan ham kamroq jazo tayinlash imkoniyatini jinoyat qonunining jazoni yengillashtiruvchi holatlarni tartibga soluvchi moddasiga kiritish [2, 118-120-b.] yoxud aksincha ularni saqlab qolish va Polsha (JK 60-moddasida sanksiyaning eng kam miqdori chegarasidan chetga chiqish imkonini beradigan holatlarning aniq ro'yxati keltirilgan) hamda Xitoy (JK 10-, 17-, 19-24-, 27-29-, 63-, 68-moddalarida yengilroq jazo tayinlash uchun asos bo'ladigan jami sakkizta holat o'z aksini topgan) tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirishga [1, 114-b; 3, 9-b; 4, 12-b; 5, 8-b; 6, 13-b; 7, 21-22-b.] doir takliflar ham ilgari suriladi. Hattoki mazkur holatlarni tasniflash ham taklif etiladi [4, 11-b.].

Ayni paytda Moldova JK (79-modda)ga muvofiq, jinoyat sodir etgan shaxsning voyaga yetmaganligi istisnoli holat sifatida qat'iy belgilangan bo'lsa, o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi, o'z navbatida, sud tomonidan istisnoli holat deb topilishi mumkinligi e'tiborga loyiq.

Shu o'rinda O'zR JK 57-moddasida o'z ifodasini topgan holatlar ro'yxati ochiq hisoblanadi. Shuningdek, ushbu moddaning uchinchi qismida qayd etilgan

qoidaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "yoki", "yoxud" singari qo'shma so'zlarning ishlatilmaganligi tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan biror-bir holat "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holat" deb topilishi uchun bir paytning o'zida aybdorning shaxsi, aybining shakli va darajasi, jinoyat qilish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvorini aks ettirishi lozim. Mazkur toifadagi holatlarning JK 55-moddasida keltirilgan "yengillashtiruvchi holatlar"dan ahamiyati jihatidan asosiy farqi, yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi jazoning muddati yoki miqdorini ushbu kodeks maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasi doirasida qisqartirish imkonini bersa, "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" mavjudligi sudning ixtiyorini yanada kengaytirgan holda yuqoridagi sanksiyaning eng quyi chegarasidan ham chetga chiqish yoki ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni (JK 44-49-moddalariga rioya qilgan holda) tayinlash, shuningdek, qayd etilgan harakatlar bilan bir paytda mazkur moddada qo'llanishi shart deb ko'rsatilgan qo'shimcha jazoni tayinlamaslik imkoni vujudga keladi. Shu bilan birga, adabiyotlarda qo'shimcha jazoni mazmunan O'zR JK 57-moddasida ko'zda tutilgan tartibda yengillashtirish yuzasidan bahslar ham ilgari suriladi [8, 160-b.].

O'z navbatida, JK 55-moddasi birinchi qismidagi ro'yxatda qayd etilgan hamda ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq yuqoridagi ro'yxatda qayd etilmagan yengillashtiruvchi holat yoxud bunday holatlar majmui sud tomonidan "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holat" deb topilishi (ya'ni tegishli holatning toifasi "yengillashtiruvchi"dan "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi" toifasiga o'tkazilishi) mumkinligini ham unutmazlik lozim.

Qizig'i, adabiyotlarda jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda mazkur toifadagi holatlarning qo'llanishiga yo'l qo'yish masalasi bahsli sanaladi. Bir guruh mualliflar og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda yengilroq jazo tayinlash (JK Maxsus qismining moddasi nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlash)ga yo'l qo'yib bo'lmaydi deb hisoblasa [3, 9-b; 9, 449-b.], boshqa guruh mualliflar og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ham yengilroq jazo tayinlash imkoniyati saqlanishi lozim degan nuqtayi nazarni ilgari suradilar [5, 8-b; 6, 13-b; 10, 137-b; 11, 120-b.]. Bu borada barcha MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunlarida, shu jumladan, O'zR JK 57-moddasida ham og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda yengilroq jazo tayinlashga taqiq o'rnatilmaganligi sud amaliyotida og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi yengilroq jazo tayinlashga to'sqinlik qilmasligini anglatadi. Va aksincha, misol uchun, Latviya JK (49-modda 3-qismi)da og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi yengilroq jazo tayinlanishiga to'sqinlik qilishi to'g'ridan to'g'ri mustahkamlanganligiga ko'zimiz tushadi. Jinoiy qilmishda og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi sudning yengilroq jazo tayinlash vakolatini cheklamasligi kerak, deb hisoblaymiz.

Navbatdagi masala ushbu holatlar mavjud bo'lgan taqdirda yengilroq jazo tayinlash tartibi qo'llanmaydigan holatlar ro'yxati sanaladi. Xususan, MDHga a'zo

mamlakatlar orasidan Ukraina JKga ko'ra, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar sodir etilgan (69-modda birinchi qismi), Qozog'iston JKga muvofiq, voyaga yetmagan tomonidan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxsning jinsiy daxlsizligiga nisbatan sodir etiladigan jinoyatni istisno qilgan holda, voyaga yetmaganning jinsiy daxlsizligiga nisbatan jinoyat sodir etilgan (55-modda sakkizinchi qismi) taqdirda, Moldova JKga binoan, voyaga yetgan shaxsga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda, retsidiv jinoyatda yoki og'irlashtiruvchi holatlarda qiynash, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalada bo'lish jinoyati sodir etilganda (79-modda to'rtinchi qismi), ishda istisnoli holatlar mavjudligiga qaramasdan, yengilroq jazo tayinlash qo'llanmaydi. Bunday istisnolarning eng katta ro'yxati Rossiya Federatsiyasi JKdan o'rin olgan bo'lib, mazkur ro'yxatga terrorizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish, jinoiy uyushma tuzish yoki unda ishtirok etish, havo yoki suv transporti yoxud temir yo'l tarkibini olib qochish singari jami o'n besh nafar jinoyat tarkibi kiritilgan (64-modda uchinchi qismi). Biz ham mazkur istisnolarni inobatga olgan holda O'zR JK 57-moddasiga yengilroq jazo tayinlash qoidalari qo'llanmaydigan holatlar ro'yxati kiritilishi mazkur tartibning takomillashuviga xizmat qiladi, degan fikrdamiz.

Shuningdek, Ozarbayjon (62-modda 62.2-qismi), Armaniston (64-modda ikkinchi qismi), Belarus (70-modda ikkinchi qismi), Qozog'iston (55-modda beshinchi qismi), Moldova (79-modda 1/1-qismi), RF (64-modda ikkinchi qismi), Tojikiston (63-modda ikkinchi qismi) va Turkmaniston (58-modda ikkinchi qismi) jinoyat qonunlarida "ham alohida yengillashtiruvchi holatlar, ham bunday holatlarning majmui istisnoli holat deb topilishi mumkin" ekaniga doir qoida o'rnatilgani yengillashtiruvchi va istisnoli holatlarning bir xil huquqiy tabiatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur holatlarning O'zR JK 55-modda birinchi va ikkinchi qismlarida, shu jumladan, 57¹-moddasida ko'zda tutilgan yengillashtiruvchi holatlar bilan o'zaro nisbati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) huquqiy tabiatiga ko'ra yuqoridagi keltirilgan holatlarning barchasi ham jazoni yengillashtiruvchi holatlar hisoblanadi;

2) JK 55-moddasida ko'zda tutilgan yengillashtiruvchi holatlarning ta'siri JK Maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasi doirasida, ya'ni ushbu moddada jazo choralarining belgilangan eng ko'p va eng kam miqdori chegarasida yuz beradi hamda sud jazoning eng kam qismiga qadar yengillashtira oladi xolos. Bunda sud qayd etilgan moddada nazarda tutilgan mazkur jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlash yoxud mazkur moddada qo'llanishi shart deb ko'rsatilgan qo'shimcha jazoni tayinlamaslik vakolatiga ega bo'lmaydi;

3) JK 55-moddasi birinchi qismida, shu jumladan JK 57-1-moddasida ko'zda tutilgan holatlarni inobatga olish sudning majburiyati bo'lgani holda, aksincha, ushbu kodeks 55-moddasining ikkinchi qismi hamda 57-moddasida tilga olingan holatlarni inobatga olish sudning huquqi sanaladi.

4) sud amaliyotida JK 55-moddasining birinchi va, ayniqsa, ikkinchi qismidagi holatlar hamda 57-moddasida mustahkamlangan holatlarni bir-biridan farqlashda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin, sababi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topilishi mumkin bo'lgan holatlar (sodir etilgan qilmish xususiyatlarini, ya'ni aybdorning shaxsi, aybining shakli va darajasi, jinoyat qilish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvorini ifodalovchi holatlar) sud tomonidan ushbu kodeks 55-moddasi ikkinchi qismiga havola qilingan holda inobatga olinishi mumkin. Shuningdek, misol uchun JK 55-moddasi birinchi qismida ko'zda tutilgan ayrim holatlar bevosita jinoyat qilish sharoiti va sabablarini aks ettiradi. Bu borada, qonun chiqaruvchi JK 55-moddasida ko'zda tutilgan har qanday yengillashtiruvchi holat JK 57-moddasi uchinchi qismida o'z aksini topgan belgilarga ega bo'lgan taqdirda, mazkur holatlarni sud tomonidan "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" deb topish vakolatiga hamda ayni paytda 57-moddada ko'zda tutilgan yanada kengroq vakolatga ega bo'la olishini nazarda tutgan bo'lishi ham mumkin. Mazkur nuqtayi nazarimizni "alohida (istisnoli) holatlar"ni aks ettirgan yuqoridagi deyarli barcha MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunlarida, Ukraina JKni istisno qilgan holda, o'z ifodasini topgan "ham alohida yengillashtiruvchi holatlar, ham shunday holatlarning majmui istisnoli holat deb topilishi mumkin" ekanligiga doir qoida ham tasdiqlaydi. Misol uchun, Moldova JK bo'yicha voyaga yetmaganning hamda o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan shaxsning jinoyat sodir etishi yengillashtiruvchi holatlarning ro'yxatida (76-modda) tilga olingan bo'lib, shuningdek, voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi istisnoli holat sanalishi, o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lgan shaxsning jinoyat sodir etishi esa sud tomonidan istisnoli holat deb topilishi mumkinligi mustahkamlangan (79-modda). Shuni aniqki, huquqiy tabiatiga ko'ra "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" boshqa yengillashtiruvchi holatlardan ko'ra kengroq sud ixtiyori vakolatini yuzaga keltiradi.

Bizning nuqtayi nazarimizni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-son "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 37-bandi ham qisman tasdiqlaydi. Mazkur bandning uchinchi xatboshisiga muvofiq, "jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar ro'yxati qonunda ko'rsatilmaganligini nazarda tutib, sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkin (masalan, moddiy zararining to'liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og'ir kasalligi, ularning mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo'qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, uning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochishda faol ishtirok etganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori, jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi va h.k.)". Ko'rinib turibdiki, mazkur xatboshida qayd etilgan ayrim holatlar JK 55-moddasi birinchi qismida ham ko'zda tutilgan. Biroq Oliy Sudning mazkur tushuntirishi sud amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

tushunmovchiliklarga barham bermaydi, sababi yuqoridagi tushuntirishda misol tariqasida keltirilgan va JK 55-moddasi birinchi qismidagi ro'yxatdan o'z aksini topmagan yengillashtiruvchi holatlar yoxud ularning majmui sudlarning ixtiyoriga ko'ra ushbu kodeks 55-moddasi ikkinchi qismiga havola qilingan holda "qo'shimcha yengillashtiruvchi holat" (bizningcha, 55-modda birinchi qismidagi qat'iy ro'yxatda o'z ifodasini topgan holatlarni "asosiy yengillashtiruvchi holatlar" sifatida e'tirof etish mumkin) yoki 57-moddasiga havola qilgan holda "jinoiyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" sifatida baholanishi ham mumkin.

Ayni paytda yuqoridagi Plenum qarorining 28-bandi ikkinchi xatboshisiga ko'ra, ayollarga, shuningdek, oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan Jinoiyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi (moddasining qismi)da nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosidan ham kamroq yoki boshqa yengilroq jazo JK 57-moddasi qo'llangan holda tayinlanishi ta'kidlanadi. Mazkur xatboshiga bevosita aloqador JK 50-moddasi (ozodlikdan mahrum qilish) oltinchi qismiga murojaat qiladigan bo'lsak, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati ushbu kodeks maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emasligi to'g'risidagi qoidaga ro'baro' kelamiz. Demak, bizningcha, qonun chiqaruvchi ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadigan jinoiyatlar ayollar hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklar tomonidan sodir etilgan taqdirda, mazkur holatlar ham bevosita "jinoiyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar" deb hisoblanishiga doir xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ilmiy adabiyotlarda O'zR JK 57-, 57¹-, 57²- va 58-moddalarida nazarda tutilgan me'yorlarga analogik qoidalarni jazo tayinlashning "maxsus qoidalari" [12; 13, 7-9-b; 14, 4-5-b; 15, 6-b; 16, 68-b.], "maxsus asoslari" [17, 137-b.] yoxud "maxsus me'yorlari" [10, 59-60-b.], shuningdek, "alohida yengillashtiruvchi holatlar" [18, 156-b.] sifatida e'tirof etishga doir ko'plab nuqtayi nazarlar ilgari surilishini ta'kidlash joiz. Bizningcha, qayd etilgan qoidalarning qanday nomlanishi muhim emas, sababi amalda O'zR JK 57²- va 58-moddalarida o'z ifodasini topgan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvning tuzilganligi yoki jinoiyatning tamomlanmaganligi fakti ushbu kodeksning 57- va 57¹-moddalarida qayd etilgan yengillashtiruvchi holatlar singari jazoni yengillashtirish uchun asos vazifasini o'taydi va shu sababdan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvning tuzilganligi yoki jinoiyatning tamomlanmaganligi faktini yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etish xato bo'lmaydi. Shu o'rinda ilmiy manbalarda aybga iqrorlik haqidagi kelishuvning tuzilishi mustaqil yengillashtiruvchi holat hisoblanmasligi, balki mazmunan O'zR JK 55-moddasi birinchi qismi "a" bandida o'z ifodasini topgan yengillashtiruvchi holatni hisobga olish shakli ekanligi yuzasidan fikrlar ham ilgari suriladi. Bunda jazoning eng ko'p qismi chegarasining qisqartirilishi ushbu kelishuvning tuzilganlik holati bilan emas, balki mazkur kelishuv doirasida amalga oshirilgan xatti-harakatlarning ahamiyati, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan kelishilgan xatti-harakatlarning amal-

ga oshirilishiga bo'lgan ehtiyoji bilan izohlanadi [19, 8-9-b.]. Bu borada O'zR JK 57²-moddasida ko'zda tutilgan jazoni yengillashtirishning maxsus qoidasi qo'llanilishi uchun yuridik asos ushbu kodeks 55-modda birinchi qismi "a" bandida keltirilgan yengillashtiruvchi holatning mavjudligi aniqlangan paytdan emas, bevosita kelishuv tuzilgan vaqtdan vujudga kelishiga e'tibor qaratish darkor.

Shuningdek, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi (istisnoli) holatlarni jazoni yengillashtirishga qaratilgan qandaydir mustaqil turdagi holatlar sifatida emas, balki O'zR JK 55-moddasida ko'zda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarning ushbu kodeks 57-moddasi uchinchi qismida mustahkamlangan belgilarga ega bo'lgan toifasi sifatida qarash, huquqiy tabiati va mohiyati jihatidan JK 55-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari, 57- va 57¹-moddalarida nazarda tutilgan barcha holatlarning aslida yengillashtiruvchi holatlar ekanligini e'tirof etish, bizningcha, to'g'ri bo'ladi.

Umuman olganda, O'zR JK 57-moddasi birinchi qismi jazoni yengillashtirishning quyidagi ikki hamda ushbu moddaning uchinchi qismi yana bir usulini ko'zda tutadi:

1) ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlash;

2) ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlash;

3) ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida qo'llanishi shart deb ko'rsatilgan qo'shimcha jazoni tayinlamaslik.

E'tiborlisi, yengilroq jazo tayinlashning yuqorida qayd etilgan uchinchi usuli JK 57-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ikki usuldan alohida ravishda, ya'ni JK 57-moddasining ikkinchi qismida o'z aksini topganligi mazkur uchinchi usulni yuqoridagi ikki usulning muqobili sifatida emas, balki mazkur ikki usul bilan bir paytda qo'llanishi mumkin, degan xulosaga olib keladi.

O'z navbatida, adabiyotlarda bir yoki bir nechta yengillashtiruvchi holatning majmui istisnoli holat sifatida inobatga olinishi lozimligi to'g'risidagi masala bahsli sanalishini ham ta'kidlash zarur. Biroq biz ham M.F. Mingalimova [20, 134-135-b.] hamda M.T. Garayevning [10, 126-127-b.] fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda (O'zR JK 55-moddasida ko'zda tutilgan) bir yoki bir qancha yengillashtiruvchi holatning majmui istisnoli holat deb topilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas hamda mazkur holatlarning asosiy belgisi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytirishga sabab bo'lishida namoyon bo'ladi, deb hisoblaymiz. Amalda ham ushbu yondashuvning MDHga a'zo mamlakatlar qatoridan Ozarbayjon (62-modda), Armaniston (64-modda), Belarus (70-modda), Qozog'iston (55-modda), Moldova (79-modda), Rossiya Federatsiyasi (64-modda), Tojikiston (63-modda) va Turkmaniston (58-modda) jinoyat kodekslarida o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Mazkur jinoyat qonunlarida bitta yengillashtiruvchi holat ham alohida, ham bir qator yengillashtiruvchi holatlarning majmui birgalikda istisno holat deb topilishi mumkinligi mustahkamlangan.

Xulosalar

Sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda O'zR JK 57-moddasida belgilangan yengilroq jazo tayinlash

tartibini qo'llab bo'lmaydigan holatlar ro'yxatini aks ettirishga doir Ukraina, Qozog'iston, Moldova va Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunlari tajribasini hamda ushbu kodeks 58-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish tartibi qo'llanmaydigan holatlarni inobatga olgan holda O'zR JK 57-moddasini yangi to'rtinchi qism bilan to'ldirish hamda ushbu moddani quyidagi yangi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz:

“57-modda. Yengilroq jazo tayinlash

(1-q.) Sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e'tiborga olib, alohida hollarda ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashi mumkin.

(2-q.) Sud shu asoslarni e'tiborga olib, ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida qo'llanishi shart deb ko'rsatilgan qo'shimcha jazoni tayinlamasligi ham mumkin.

(3-q.) Sodir etilgan qilmish xususiyatlarini ifodalovchi holatlar, ya'ni aybdorning shaxsi, aybining shakli va darajasi, jinoyat qilish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvori jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topilishi mumkin.

(4-q.) Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar:

a) o'ta xavfli retsdivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan;

b) korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun;

v) tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan: javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan;

o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan;

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo'llanmaydi”.

REFERENCES

1. Koliyev V.L. Smyagcheniye nakazaniya po ugovnomu pravu: teoreticheskiy, pravovoy i pravoprimeritel'nyy aspekty [Mitigation of punishment under criminal law: theoretical, legal and law enforcement aspects]. PhD thesis. Volgograd, 2003, 182 p.

2. Mishkin V.B. Smyagcheniye nakazaniya v ugovnom prave [Mitigation of punishment under criminal law]. PhD thesis. Omsk, 2013, 200 p.

3. Kukovyakin A.Ye. Isklyuchitel'nyye obstoyatel'stva kak osnovaniye smyagcheniya nakazaniya [Exceptional factors as a ground for mitigation of punishment]. Abstract of PhD thesis. Omsk, 2018, 23 p.
4. Miftahov A.M. Individualizatsiya nakazaniya pri ego naznachenii s uchedom isklyuchitel'nykh obstoyatel'stv v rossiyskom ugolovnom prave [Individualization of punishment at sentencing taking into account exceptional factors in Russian criminal law]. Abstract of PhD thesis. Nizhniy Novgorod, 2012, 30 p.
5. Nikolayeva T.V. Naznacheniyе bolee myagkogo nakazaniya, chem predusmotreno za dannoye prestupleniye (voprosy teorii i praktiki) [Imposition of a more lenient punishment than is provided for this crime (questions of theory and practice)]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2005, 25 p.
6. Mikhaylenko I.V. Naznacheniyе bolee myagkogo nakazaniya, chem predusmotreno zakonom za soversheniye konkretnogo prestupleniya [Imposition of a more lenient punishment than is provided by law for the commission of a specific crime]. Abstract of PhD thesis. Tomsk, 2012, 22 p.
7. Kochkarev A.I. Naznacheniyе bolee myagkogo nakazaniya, chem predusmotreno zakonom [Imposition of a more lenient punishment than provided for by law]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 2005, 26 p.
8. Kachan M.I. Obstoyatel'stva, smyagchayushhiye nakazaniye, v rossiyskom ugolovnom prave [Mitigating factors in Russian criminal law]. PhD thesis. Rostov-on-Don, 2005, 199 p.
9. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal Law of Russia]. Vol. 1: The General Part. Moscow, Norma Publ., 2005, 592 p.
10. Garayev M.T. Smyagcheniyе nakazaniya pri yego naznachenii po rossiyskomu ugolovnomu pravu [Mitigation of punishment at the moment of sentencing under Russian criminal law]. PhD thesis. Kazan, 2002, 207 p.
11. Savenkov A.V. Printsip individualizatsii pri naznachenii nakazaniya [The principle of individualization in sentencing]. PhD thesis. St. Petersburg, 2004, 241 p.
12. Prokhorov L.A., Poltavets V.V., Elets E.A. Spetsial'nyye pravila naznacheniya nakazaniya: kontseptual'nyye osnovy i problemy vzaimodeystviya [Special rules for sentencing: conceptual foundations and problems of interaction]. Justice, 2021, vol. 3, no. 2, pp. 117–138. DOI: 10.37399/2686-9241.2021.2.117-138.
13. Khamitov R.N. Spetsial'nyye pravila naznacheniya nakazaniya za yedinichnoye prestupleniye po rossiyskomu ugolovnomu pravu [Special rules for sentencing for a single crime under Russian criminal law]. Abstract of PhD thesis. Kazan, 2001, 23 p.
14. Zhumayev A.S. Spetsial'nyye pravila naznacheniya nakazaniya za yedinichnoye prestupleniye [Special rules for sentencing for a single crime]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2009, 26 p.
15. Izmalkov V.A. Naznacheniyе ugolvnogo nakazaniya: obshhiye teoreticheskiye nachala i prakticheskiye problemy ikh primeneniya [Imposition of criminal punishment: general theoretical grounds and practical problems of their application]. Abstract of PhD thesis. Vladivostok, 2012, 28 p.



16. Nitsenko R.A. Naznachenije nakazaniya: obyazatel'nyye smyagcheniye i usileniye [Sentencing: mandatory mitigation and aggravation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2014, 211 p.

17. Blagov Ye.V. Naznachenije nakazaniya (teoriya i praktika) [The sentencing (theory and practice)]. Yaroslavl, Jaroslavl State University Publ., 2002, 187 p.

18. Donets S.P. Smyagchayushhiye i otyagchayushhiye obstayatel'stva v ugolovnom prave (Pravovaja priroda, klassifikatsiya, problemy ucheta) [Mitigating and aggravating factors in criminal law (Legal nature, classification, consideration problems)]. PhD thesis. Kazan', 2003, 223 p.

19. Shishkin A.A. Individualizatsiya ugolovnogo nakazaniya s uchetom obstayatel'stv, svyazannykh s sodeystviyem pravookhranitel'nykh organam [Individualization of criminal punishment, taking into account the circumstances related to assistance to law enforcement bodies]. Abstract of PhD thesis. Rostov-on-Don, 2012, 24 p.

20. Mingalimova M.F. Naznachenije nakazaniya s uchetom smyagchayushhiykh obstayatel'stv [Sentencing, taking into account mitigating factors]. PhD thesis. Moscow, 2019, 254 p.

KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 4-son

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.4.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR:

S. Samadov

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: Y. Mahmudov, Y. Yarmolik

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2023-yil 21-dekabrda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 6,74.

Adadi: 30. Buyurtma: № 132.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

Toshkent davlat yuridik universiteti ©